



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 08 | pp. 78-84 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

XORIJIY TAJRIBA ASOSIDA DEPOZIT OPERATSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-ASOSIY YONDASHUVLARI



Komilova Mukammal Shavkatovna

Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti

Anotatsiya. Ushbu maqolada tijorat banklari faoliyatida depozit operatsiyalarining o'рни va ularning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilingan. Jahon bank amaliyotidagi ilg'or tajribalar – indeksatsiyalangan omonatlar, sovrinli depozitlar, ko'p valyutali avtomatik jamg'arma tizimlari va gamifikatsiyalashgan moliyaviy mahsulotlar asosida, O'zbekiston bank tizimi uchun samarali yondashuvlar ishlab chiqilgan. Shuningdek, mijozlarning moliyaviy xatti-harakatlariga ta'sir qiluvchi innovatsion omillar, sodiqlik dasturlari va moliyaviy inklyuziya masalalari chuqur yoritilgan. Tadqiqot natijalari O'zbekiston sharoitida xorijiy tajribani mahalliyashtirish orqali depozit bazasini kengaytirish va mijozlar ishonchini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalarni ilgari suradi.

Kalit so'zlar. depozit operatsiyalari, tijorat banklari, omonatlar, indeksatsiyalangan depozit, lotereyaviy jamg'arma, gamifikatsiya, moliyaviy inklyuziya, bank ishonchliligi, raqamli transformatsiya, sodiqlik dasturi, xalqaro bank amaliyoti.

Abstract. This article analyzes the role of deposit operations in the activities of commercial banks and the factors influencing their development. Based on advanced international practices — such as indexed deposits, prize-linked savings accounts, multi-currency automatic savings systems, and gamified financial products — effective strategies for the development of Uzbekistan's banking sector are proposed. The paper also explores the impact of innovative elements on customer financial behavior, loyalty programs, and financial inclusion. The findings offer practical recommendations for expanding the deposit base and enhancing customer trust by localizing foreign experiences to the national context.

Keywords. deposit operations, commercial banks, savings, indexed deposits, prize-linked savings, gamification, financial inclusion, bank reliability, digital transformation, loyalty program, international banking practice.

Аннотация. В данной статье проанализирована роль депозитных операций в деятельности коммерческих банков и факторы, влияющие на их развитие. На основе передового международного опыта — индексированные депозиты, сберегательные счета с розыгрышами призов, мультивалютные автоматические накопительные системы и геймифицированные финансовые продукты — предложены эффективные подходы для

развития банковского сектора Узбекистана. Также подробно рассмотрено влияние инновационных инструментов на финансовое поведение клиентов, программы лояльности и вопросы финансовой инклюзии. Результаты исследования содержат практические рекомендации по расширению депозитной базы и повышению доверия клиентов через адаптацию зарубежного опыта к национальным условиям.

Ключевые слова. депозитные операции, коммерческие банки, сбережения, индексированные депозиты, депозиты с розыгрышами, геймификация, финансовая инклюзия, надежность банков, цифровая трансформация, международный банковский опыт.

Kirish. Zamonaviy bank tizimi har qanday davlatning iqtisodiy barqarorligi va moliyaviy infratuzilmasining ajralmas qismi hisoblanadi. Ayniqsa, tijorat banklari faoliyatida depozit operatsiyalari alohida o'rin tutadi. Aholining bo'sh mablag'larini jalb qilish orqali banklar kredit berish faoliyatini yuritadi, investitsiya salohiyatini oshiradi va likvidlikni ta'minlaydi. Hozirgi kunda omonat hajmini oshirish, ularning sifat tarkibini yaxshilash, mijozlar ishonchini kuchaytirish kabi masalalar O'zbekiston bank tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Xorijiy mamlakatlardagi ilg'or tajribalar esa ushbu yo'nalishda innovatsion yondashuvlarni taklif etmoqda.

Hozirgi sharoitda omonatlar hajmining oshishi va ularning tarkibining yaxshilanishi tijorat banklarini sog'lomlashtirish, ularning kreditga layoqatlilik darajasini va likvidligini oshirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Uzoq muddatli omonatlarning ko'payishi banklar mustaqilligi, barqarorligi va ishonchliligining kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Sog'lom omonat bozorini shakllantirish uchun moliyaviy tashkilotlar o'rtasida mijozlar va omonatlarni jalb qilish borasida halol va teng raqobat bo'lishi, ya'ni omonat va depozitlar bo'yicha foiz stavkalari shakllanishida erkin bozor mexanizmlari amal qilishi zarur. Banklar o'rtasidagi resurslar uchun raqobat bank resurslarini ko'paytirishga qaratilgan maxsus chora-tadbirlar ishlab chiqish va joriy etishni rag'batlantiradi.

Bank tizimining zamonaviy rivojlanish bosqichi raqobat kuchayishi va raqamli innovatsion texnologiyalar joriy etilishi natijasida faol transformatsiya va modernizatsiya jarayonlari bilan tavsiflanadi. Bunday sharoitda tijorat banklarining resurs bazasini, ayniqsa depozit operatsiyalarini samarali boshqarish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi. Bank depozit siyosatiga bag'ishlangan iqtisodiy adabiyotlarni tahlil qilish ushbu sohada ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilganligini ko'rsatadi. Jumladan, xorijiy tadqiqotchilar qatorida A.A. Martens, N.O. Derkach, G.G. Korobov, O.I. Lavrushin, M.R. Kadjaeva, Ye.I. Vorobyovalar hamda milliy olimlar — M.N. Buxadurov, S.M. Xodiyev, B.U. Shermuxammedov, U. va boshqa mutaxassislarning ishlarini alohida ta'kidlash mumkin.

E'tibor berish lozimki, banklarning depozit siyosati sohasidagi tadqiqotlar ushbu yo'nalishda jahon ilm-fanida depozit siyosatini shakllantirish va amalga oshirishga bag'ishlangan ko'plab ilmiy ishlanmalar mavjudligini ko'rsatadi. Har bir tadqiqotchi "depozit siyosati" tushunchasini depozit resurslarini jalb qilishga qaratilgan strategiya va

taktika sifatida talqin qiladi. Biroq, iqtisodchi-tadqiqotchilarning bu tushunchaga bergan ta'riflari o'xshash jihatlariga qaramay, o'ziga xoslikka ega. Shu boisdan, ushbu tushunchaning mavjud definitsiyalarini keltirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Iqtisodchi olimlar A.A.Martens va N.O.Derkachning ilmiy ishlarida ta'kidlanishicha: "...bank resurslarining asosiy qismini shakllantirishdan tashqari, depozit siyosati bankning kredit salohiyati va moliyaviy faoliyatining samaradorligi darajasini ham belgilaydi. Biroq, ushbu sohadagi innovatsiyalar faqat moliyaviy barqarorlik sharoitlarida samarali ishlaydi. Boshqa barcha holatlarda esa, tijorat banklari o'zlarining likvidlik pozitsiyasini saqlab qolishga intiladilar va ular uchun jozibador bo'lgan mijozlar segmentidan mablag'lar jalb qilishga harakat qiladilar"[8]

Iqtisodchi olim O.I. Lavrushina bankning depozit siyosatini quyidagicha ta'riflaydi: "Depozit siyosati — bu bank siyosatining bir turi bo'lib, u omonatchilarning pul mablag'larini depozitlarga jalb qilish va ushbu jalb etish jarayonini samarali boshqarishga yo'naltirilgan". Shuningdek, M.R. Kadjaevaning ta'kidlashicha: "Depozit siyosati — bu banklar tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag'larini omonatlar (depozitlar) shaklida jalb qilish va ularni keyinchalik o'zaro manfaatli tarzda foydalanishga yo'naltirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasidir"[9].

Ye.I.Vorobyeva depozit siyosatini quyidagicha talqin qiladi: "Depozit siyosati — bu deponentlar portfelini shakllantirishga, ushbu siyosatni amalga oshirishning turli shakl va usullarini belgilashga, bozorning ushbu segmentidagi raqobatbardosh holatlarni aniqlashga, hamda resurs bazasining barqarorligi va ishonchligini ta'minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuasidir"[10].

M.N. Buxadurov fikricha: "Bankning depozit siyosati — bu bank siyosatining ajralmas qismi bo'lib, u mijozlardan pul mablag'larini qaytarish va to'lovlik sharti asosida jalb qilishga yo'naltirilgan bosqichma-bosqich va o'zaro bog'liq harakatlar majmuasidir"[3].

Iqtisodchi S.M. Xodiev o'z ilmiy ishida tijorat banklarining depozit siyosatini "normativ, tashkiliy va texnologik masalalarni qamrab oluvchi depozit faoliyati dasturlarining majmuasi bo'lib, u tijorat banklaridagi depozit operatsiyalari orqali amalga oshiriladi" deb ta'riflaydi[12].

O'zining ilmiy ishlarida B.U. Shermuxammedov ta'kidlaydiki, "tijorat bankining o'ziga xos depozit siyosatini shakllantirish bank faoliyatini tartibga solish va uni yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan vazifalar hamda tadbirlar majmuasini ishlab chiqishga asoslanishi lozim"[13].

Shuniyam qayd etish lozimki, "Depozit operatsiyalari — bu mijozlarning mablag'larini bank hisobvaraqlari va omonatlarga jalb qilish bilan bog'liq faoliyatdir. Bu operatsiyalar tarkibiga muddatli omonatlar hamda joriy hisobvaraqlar kiradi. Depozit operatsiyalarining asosini mijozlarning bankka bo'lgan ishonchi tashkil etadi va aynan shu omil banklarning bozor sharoitida muvaffaqiyatli rivojlanishiga xizmat qiladi"[7].

Yuridik va jismoniy shaxslarning omonatlari uchun raqobat kuchaygan sharoitda turli xil depozit mahsulotlari, xizmat ko'rsatish uslublari hamda ular uchun narxlar (foiz stavkalari) paydo bo'ldi. Mazkur yo'nalishda o'tkazilgan tadqiqotlar hozirda bank tizimi 30 dan ortiq turdagi bank omonatlarini taklif etayotganini ko'rsatmoqda. Har bir bank

mijozlarga ularning ehtiyojlari, mablag'larini saqlash shakli va imkoniyatlari, shuningdek, tovar va xizmatlar uchun to'lov usullariga asoslangan holda turli xil variantlarni taklif etadi.

Mahalliy banklarning depozit xizmatlari anchayin xilma-xildir. Biroq, e'tiborga molik jihat shundaki, xorijiy bank amaliyotida mavjud bo'lgan ba'zi depozit xizmatlari O'zbekiston bank tizimida hali mavjud emas. Masalan, xorijiy tajribada «indeksatsiyalangan depozitlar» keng tarqalgan bo'lib, ular mijozga minimal daromad (1–2%) kafolatini taqdim etadi. Qo'shimcha daromad esa fond yoki valyuta bozoridagi vaziyatga bog'liq bo'lib, bu daromad 8–12% oralig'ida bo'lishi mumkin. Mazkur depozit turi amalda fond bozorida o'yin qilishga o'xshaydi, farqi shundaki, mijoz har qanday holatda ham kamida minimal daromadni oladi — bu holatda aktsiyalar kursi qanday bo'lishidan qat'i nazar.

Bunday depozit formatlari mijozlarning keng doirasi uchun qulay hisoblanadi — barqarorlikni afzal ko'ruvchi mijozlardan tortib, minimal tavakkal bilan yuqori daromad izlovchi shaxslargacha. Banklar uchun esa bu mahsulotlar — depozit turlarini kengaytirish, resurslarni jalb etish va daromadga yo'naltirilgan, murakkabroq moliyaviy vositalarga bo'lgan talabni qondirish vositasidir. Bu esa, o'z navbatida, banklarga katta hajmdagi omonatlarni jamlash imkonini beradi.

Metodologiya. Mazkur maqolada taqqoslov tahlil, deskriptiv statistik, kontent tahlili va tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Ilmiy tahlil uchun AQSh, Buyuk Britaniya, Singapur, Malayziya, BAA, Ispaniya, Ukraina va boshqa rivojlangan mamlakatlardagi bank tizimi amaliyotlari o'rganildi. Xorijiy tijorat banklarining omonat mahsulotlari, raqamli xizmatlar, gamifikatsiyalash usullari, va depozitlarni jalb etishdagi innovatsion yondashuvlar o'zbek bank tizimining hozirgi holati bilan taqqoslab tahlil qilindi.

Natijalar. Tadqiqot natijalariga ko'ra, xorijiy mamlakatlarda depozit operatsiyalarini ilgari surish uchun quyidagi samarali mexanizmlar qo'llanilmoqda:

1. Innovatsion depozit mahsulotlari — indeksatsiyalangan depozitlar, lotereya asosidagi (PLS) omonatlar, valyutalarning avtomatik konvertatsiyasiga asoslangan depozitlar;
 2. Gamifikatsiya (o'yinlashtirish) — raqamli platformalarda ball to'plash, topshiriqlar, belgilarning berilishi orqali foydalanuvchilarni rag'batlantirish;
 3. Sodiqlik dasturlari — uzoq muddatli mijozlar uchun rag'batlar, foiz stavkalarining oshirilishi, eksklyuziv xizmatlar;
 4. Qo'shma depozit tarmoqlari — AQShdagi kabi turli banklar tarmog'i orqali depozitlar avtomatik taqsimlanadi va kengroq sug'urta imkoniyatlari taqdim etiladi;
 5. Raqamli xizmatlar integratsiyasi — moliyaviy savodxonlik, ta'limiy simulyatsiyalar, interaktiv ilovalar orqali mijoz jalbi kuchaytirilmoqda.
- Shuningdek, xorijiy tajriba asosida quyidagi natijalar qayd etildi:
- Depozitlar hajmining sezilarli o'sishi (masalan, "Save to Win" dasturi orqali ishtirokchilarning 56% ilk bor jamg'arma boshlagan);
 - Yoshlar va kam daromadli qatlamlarning omonat tizimiga keng jalb etilishi;
 - Banklarning likvidlik va ishonchlilik ko'rsatkichlarining yaxshilanishi.

Muhokama

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston bank tizimi omonat operatsiyalarining soni va sifati jihatidan o'sib borayotgan bo'lsada, xorijiy amaliyotda mavjud bo'lgan ba'zi innovatsion mahsulotlar hali keng joriy etilmagan. Jumladan, indeksatsiyalangan depozitlar, lotereyaviy jamg'armalar, ko'p valyutali avtomatik depozitlar, gamifikatsiyalashgan raqamli platformalar — mamlakat bank tizimida mavjud emas yoki yetarli darajada rivojlanmagan.

Ushbu mahsulotlar orqali xorijiy banklar nafaqat depozit mablag'larini ko'paytirmoqda, balki uzoq muddatli mijozlar bazasini shakllantirish, sodiqlikni mustahkamlash va mijozlar moliyaviy odatlarini ijobiy tomonga o'zgartirishga erishmoqda.

Bundan tashqari, depozit operatsiyalarini tartibga soluvchi qonunchilik va kafolat tizimi ham xorijda yuqori darajada samarali ishlamoqda. AQShdagi FDIC kabi kafolat tizimlari mijoz ishonchini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. O'zbekistonda ham bank depozitlariga kafolat beruvchi tizim mavjud bo'lsada, uning ochiqligi, mijozga tushunarli tarzda yetkazilishi va audit mexanizmlarining shaffofligi masalalari e'tiborga molik.

Xulosa. Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, depozit operatsiyalari – bu banklarning resurs bazasini mustahkamlovchi, ishonchlikni oshiruvchi va iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi muhim vosita hisoblanadi. Ilg'or mamlakatlarda amalga oshirilayotgan innovatsion, interaktiv va individual yondashuvlar depozitlar hajmini oshirishda, mijozlar sonini ko'paytirishda, moliyaviy savodxonlikni rivojlantirishda samarali xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda esa ushbu yo'nalishdagi rivojlanish uchun quyidagi choralarni amalga oshirish muhim:

1. Depozit mahsulotlarini diversifikatsiyalash — indeksatsiyalangan, gamifikatsiyalangan, ko'p valyutali depozit mahsulotlarini joriy etish;
2. Raqamli transformatsiyani jadallashtirish — mobil ilovalar orqali gamifikatsiya, moliyaviy o'yinlar, sodiqlik tizimlarini qo'llash;
3. Moliyaviy inklyuziyani oshirish — past daromadli qatlamlar va yoshlarga mo'ljallangan maxsus depozit dasturlarini ishlab chiqish;
4. Banklararo raqobatni oshirish va erkin foiz siyosatini shakllantirish;
5. Mijoz ishonchini mustahkamlovchi kafolat mexanizmlarini rivojlantirish.

Ushbu chora-tadbirlar milliy bank tizimi barqarorligini oshirish bilan birga, aholi mablag'larining jamg'arilishi va investitsiya salohiyatining kengayishiga xizmat qiladi. Shu tariqa, xorijiy tajribani milliy kontekstda moslashtirish orqali O'zbekiston bank tizimini yangi bosqichga olib chiqish mumkin.

Umuman olganda, xorijiy mamlakatlardagi depozit operatsiyalarini rivojlantirish tajribasi va ularning banklarda joriy etilishi O'zbekiston moliyaviy tizimini takomillashtirishda katta ahamiyatga ega. Zamonaviy uslub va texnologiyalarni qo'llash orqali banklar mijozlar uchun depozitlarning jozibadorligini oshirib, o'z bizneslarini barqaror rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Xorijiy tajribani mahalliy bozor sharoitlarini hisobga olgan holda qo'llash O'zbekistondagi banklarga rivojlanishda yangi bosqichni boshlab berib, mijozlarga yuqori darajadagi xizmat ko'rsatishni ta'minlaydi. Biroq, bu jarayon mamlakat iqtisodiyoti va qonunchiligining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda amalga oshirilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A.A. Arutyunyan, "Deposit operations of the bank and their classification," Proceedings of the All-Russian Scientific Conference of Young Researchers with International Participation "Economy Today: Current State and Prospects of Development" (Vektor-2022), Moscow, 2022, vol. 1, pp. 39.
2. A.M. Karimova et al., "Improvement of deposit operations in modern commercial banks," Economics and Society, no. 5(132), 2025, www.iupr.ru, Multidisciplinary
3. Buxadurova M.N. "Depozit siyosatining tijorat banklari va aholi o'rtasidagi munosabatlardagi o'rni". Avtoreferat. Iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. Ixtisoslik: 08.00.10. – M.: 2012. – B. 12–15.
4. Ibodullaev Sh. "Aholi omonatlarini tijorat banklariga jalb qilishning dolzarb muammolari" // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil ilmiy elektron jurnali. № 3, mart 2024, 278–282-betlar.
4. M. Komilova and A. Karimova, "Factors hindering the development of deposit operations and ways to solve them," Green Economy and Development Journal, vol. 2, no. 10, 2024.
5. Комилова М. Ш. ОСОБЕННОСТИ ДЕПОЗИТНЫХ ОПЕРАЦИЙ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН // Экономика и социум. 2025. №5-2 (132).
6. Komilova M.Sh. Niyozov Z. D Priority Areas of Development of Deposit Operations In Commercial Banks of Uzbekistan. American Journal of Economics and Business Management (AJEBM) Vol. 7 Issue 6 | pp. 1-14 | ISSN: 2576-5973
7. Маликова Д.М., Пути расширения спектра инновационных услуг в Узбекистане. Электронный периодический рецензируемый научный журнал «CYBERLENINKA» European science № 4 (53) [Электронный ресурс].
8. Мартенс А.А., Деркач Н.О. Депозитная политика как базовый элемент фондирования коммерческого банка / А.А. Мартенс, Н.О. Деркач // Образование и наука: современные тренды: коллективная монография (Чебоксары, 15 март 2018 г.) / гл. ред. О.Н. Широков – Чебоксары: ЦНС
9. Лаврушин О.И. Банковский менеджмент. / О.И. Лаврушин // - М.: – КНОРУС - 2018. - С. 189. «Интерактив плюс», 2018. – С. 140-150;
10. Воробьева Е.И. Депозитная Национального коммерческого банка (ПАО) в Республике Крым. Научный вестник: Финансы, банки, инвестиции - 2018 - №1.- политика Российского С. 99-110

11. Xodiyev S.M. "Iqtisodiyot liberallasuvi sharoitida tijorat banklarining depozit siyosatini takomillashtirish". Avtoreferat. Iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. Ixtisoslik: 08.00.07. – T.: 2010. – B. 19.
12. B.U. Shermuhammedov. "Tijorat banklarining depozit siyosati va uni iqtisodiy ahamiyatini yanada oshirish yo'llari". "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2021 yil. – C. 1-12.
13. N. Zuhur et al., "Transition of higher education institutions of Uzbekistan to a credit-modular system," ResearchJet Journal of Analysis and Inventions, vol. 3, no. 1, pp. 123-127, 2022.
14. Z.D. Niyozov, "Increase the effectiveness of using a vein," World Economics and Finance Bulletin, vol. 7, pp. 23-26, 2022.
15. T.F. Mustafoyevich, "Opportunities for remote banking services to grow in the commercial banks of the Republic of Uzbekistan," Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, vol. 11, no. 11, pp. 4-7, 2023.
16. E.N. Stenkina and D.P. Slepchenko, "Deposit operations of commercial banks: Problems and possible solutions," Economics and Entrepreneurship, no. 2, pp. 267-270, 2019.
17. S. M. Sabluk, "The role of deposit operations in the development of commercial banks," Financial and Banking Review, vol. 22, no. 4, pp. 45-58, 2020.
18. D. I. Korolev, "Modern trends in deposit operations and their impact on the banking system," Journal of Financial Studies, vol. 18, no. 3, pp. 200-213, 2021.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

